

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI DRAMATIK ASARLARDA
DIOLOGIK MULOQOTNI VOQEALANTIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR
LINGVOKOGNITIV TADQIQI

Aminaxon Xushmamatova

“Cyber University”,

“Chet tillari va gumanitar fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

aminaxon.xushmamatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dramatik matnda dialogik muloqot orqali voqea rivojini yuzaga chiqaruvchi leksik birliklar lingvokognitiv yondashuvda tahlil qilinadi. A. Qahhor “Og’riq tishlar” va H. Pinter “The Caretaker” dialoglari qiyosiy material sifatida olinadi. Leksik triggerlar, presuppozitsiya, implikatura va ramkalash mexanizmlari aniqlanib, voqealantirishning kognitiv modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: drama dialogi, voqealantirish, leksik trigger, presuppozitsiya, implikatura, freym, lingvokognitiv tahlil.

АННОТАЦИЯ

В тезисе исследуются лексические единицы, которые в драматическом диалоге запускают и продвигают событие, в лингвокогнитивной перспективе. Материалом служат диалоги из “Огрик тишлар” А. Каххара и “The Caretaker” Г. Пинтера. Выявляются лексические триггеры, presupпозиции и импликатуры, описываются механизмы фреймирования и предлагается когнитивная модель событийности в диалоге.

Ключевые слова: драматический диалог, событийность, лексический триггер, presupпозиция, импликатура, фрейм, лингвокогнитивный анализ.

ABSTRACT

This article examines lexically driven event construction in dramatic dialogue from a linguo-cognitive perspective. Dialogues from A. Qahhor’s “Og’riq tishlar” and Harold Pinter’s “The Caretaker” are compared as representative corpora. Lexical triggers, presupposition cues, implicatures, and framing devices are identified, and a cognitive model is proposed to explain how dialogue lexemes generate, shift, and intensify events on stage.

Keywords: dramatic dialogue, eventfulness, lexical trigger, presupposition, implicature, frame, linguo-cognitive analysis.

KIRISH

Dramatik asar tilining o‘ziga xosligi shundaki, unda voqea “aytilgan” izohlar orqali emas, balki dialogik muloqotning o‘zida, ya’ni replika, pauza, takror, inkor, kinoya, murojaat va nomlashlar orqali quriladi. Shuning uchun ham drama dialogida voqealantirishni faqat syujet ketma-ketligi sifatida tushunish yetarli emas; voqea tomoshabinning ongida replika mazmuni, uning presuppozitsiyasi hamda kontekstda uyg‘otgan taxminlari orqali shakllanadi. Lingvokognitiv yondashuv voqeani “til birliklari orqali ishga tushadigan kognitiv operatsiya” sifatida ko‘rib, dialogdagi leksik birliklarning qaysi holatda konfliktni kuchaytirishi, harakatga undashi, statuslar almashinuvini tezlatishi yoki aksincha, muzlatib qo‘yishini aniqlash imkonini beradi [1]. Mazkur tezis aynan shu nuqtadan kelib chiqib, A. Qahhor “Og‘riq tishlar” hamda H. Pinter “The Caretaker” matnlarida dialogik muloqotning voqealantiruvchi leksik mexanizmlarini qiyosiy tahlil qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida konseptual freym nazariyasi, diskurs pragmatikasi va kognitiv semantika yondashuvlari uyg‘unlashtirildi. Freym tushunchasi dialogning har bir epizodida “nima bo‘layapti” degan savolga javob beradigan minimal kognitiv sxemani bildiradi: masalan, kasallik va og‘riq freymi, qarzdorlik va talab freymi, uy-joy va egalik freymi, tahdid va himoya freymi. Dialogda ayrim leksik birliklar aynan shu freymni chaqirib, tinglovchini muayyan interpretatsiyaga majbur qiladi. Bunda voqealantirishni ta‘minlovchi birliklar sifatida faqat fe‘llar emas, balki nomlashlar, ijtimoiy rollarni bildiruvchi so‘zlar, baholovchi sifatlar, modal birliklar, deiktik ko‘rsatkichlar ham ishlaydi. Pragmatik nuqtai nazardan esa replika faqat ma‘lumot bermaydi, balki harakat qiladi: talab qo‘yadi, rad etadi, kechiktiradi, shubha uyg‘otadi yoki aybni yuklaydi. Ushbu perlokutiv natija voqeani oldinga siljituvchi kuchga aylanadi [2]. Shuning uchun tahlilda leksik birliklarning semantik yadrosi bilan birga ularning presuppozitsiya signallari va implikatura hosil qilishdagi roli ham inobatga olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

A. Qahhor “Og‘riq tishlar”da voqealantirishning markaziy kognitiv o‘qi og‘riq tajribasi bilan bog‘liq. Og‘riq faqat fiziologik holat emas, balki kommunikativ vaziyatni qayta tashkil etuvchi faktor sifatida ishlaydi: dialog ishtirokchilari og‘riqni til orqali nomlagan zahoti “zudlik”, “davo”, “ayb”, “sabr” kabi kognitiv tugunlar faollashadi. Bu tugunlar atrofida shakllanuvchi leksik tanlovlar epizodlarning dinamizmini belgilaydi. Masalan, og‘riqni bildiruvchi nomlar va holat fe‘llari bilan birga keladigan baholovchi birliklar (kuchli, chidab bo‘lmas, battar) dialogni “oddiy shikoyat” holatidan “favqulodda vaziyat” holatiga ko‘chiradi; natijada replika endi faqat hisobot emas, balki ta’sir o‘tkazish aktiga aylanadi. Bunday holatda

voqealantiruvchi leksik birliklar ikki qatlamda ishlaydi: birinchi qatlamda ular sezgi holatini nomlaydi, ikkinchi qatlamda esa munosabatlar ierarxiyasini qayta taqsimlaydi, chunki og‘riqni boshdan kechirayotgan subyekt o‘ziga e‘tibor va yordam talab qilish huquqini kognitiv jihatdan “asoslaydi”. Shu sababli Qahhor dialogida og‘riq bilan bog‘liq leksika ko‘pincha buyruq, iltimos yoki e‘tiroz ohangiga yaqinlashib, syujetdagi keskinlikni kuchaytiradi [3].

Pinter “The Caretaker”da esa voqealantirish ko‘proq maishiy predmetlar, joy va egalik bilan bog‘liq leksik birliklar orqali ishga tushadi. Pinter dramaturgiyasida konflikt ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydi; u “kim bu yerga tegishli”, “kimning haqqi bor”, “kim kimga ishonadi” kabi savollarni uyg‘otadigan leksik signallar orqali yuzaga chiqadi. “Xona”, “to‘shak”, “kalit”, “hujjat” singari birliklar oddiy predmet nomi bo‘lib ko‘rinsa-da, kognitiv jihatdan “mulkchilik va nazorat” freymiga ulangan bo‘ladi. Dialogda shu birliklar paydo bo‘lishi bilan ishtirokchilar o‘z pozitsiyasini himoya qilish yoki mustahkamlash strategiyasiga o‘tadi, natijada har bir replika yashirin ijtimoiy muzokaraga aylanadi [4]. Bu yerda voqealantiruvchi leksik birliklar, ayniqsa, deiktik va referensial aniqlashtirishlar bilan birga kelganda kuchli ishlaydi: “shu”, “u yer”, “mana bu” kabi ko‘rsatkichlar nafaqat predmetni, balki hududiy ustunlikni ham belgilaydi. Shunday qilib, Pinterda voqea ko‘pincha “predmet haqida gap” ko‘rinishida boshlanib, aslida statuslar to‘qnashuviga olib boradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qahhor va Pinter dialoglarida voqealantiruvchi leksik birliklarning umumiy xususiyati ularning “trigger”lik tabiatidir: ular kognitiv freymni faollashtiradi va shu freym doirasida keyingi replikalarning ehtimoliy yo‘nalishini toraytiradi. Biroq triggerlarning manbai va semantik energiyasi turlicha. Qahhorda triggerlar ko‘proq tana va hissiyot tajribasiga, ijtimoiy yaqinlik va uyat mexanizmlariga tayanadi; bu holatda baholovchi leksika hamda modal birliklar voqeani tezlashtiradi, chunki “chiday olmayapman” tipidagi replika tinglovchini tezkor choraga undaydi. Pinterda esa triggerlar ko‘proq institutsional va maishiy tartibga, “qonuniylik” va “haq”ning noaniq chegaralariga tayanadi; natijada dialog voqeani tezlashtirishdan ko‘ra uni cho‘zish, mavhumlashtirish, shubha orqali kuchaytirish yo‘li bilan dramatik taranglik hosil qiladi. Kognitiv jihatdan bu farq “zudlik freymi” va “muzokara freymi”ning ustuvorligida ko‘rinadi. Birinchi holatda leksik birliklar harakatga chaqiradi, ikkinchisida esa harakatni kechiktiradi, ammo konfliktni ichdan o‘stiradi.

Dialogik muloqotning voqealantirishida presuppozitsiya signallari alohida o‘rin tutadi. Presuppozitsiya tinglovchidan muayyan “oldindan ma‘lum” bilimni qabul qilishni talab qiladi; drama dialogida esa bu bilim ko‘pincha bahsli bo‘ladi. Qahhorda presuppozitsiya ko‘proq axloqiy me‘yor va oilaviy munosabatlar doirasida ishlaydi:

ayrim soʻzlar “odam shunday qilishi kerak” degan yashirin hukmni olib keladi va shu hukm inkor qilinganda konflikt voqeaga aylanadi. Pinterda presuppozitsiya koʻproq identifikatsiya va legitimlik atrofida shakllanadi: “sen kimsan”, “qayerdan kelding”, “hujjating bormi” kabi leksik maydonlar replika ortiga “bu yerga tegishlilik isbot talab qiladi” degan yashirin shartni joylaydi. Bu shart tasdiqlanmasa, muloqotning oʻzi voqealashadi, chunki gap mazmuni emas, gapirish huquqi muammoga aylanadi [5]. “Har bir millatning muloqot xulq-atvori uning tarixiy-madaniy tajribasi hamda qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi” [10]. Binobarin, bir xil pragmatik vaziyat ingliz va oʻzbek madaniyatlarida turlicha nutqiy niyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur holatni quyidagi misollar orqali koʻrib chiqish mumkin” [8]:

Ingliz dramaturgiyasidan misol:

Jimmi: “Senga hammasi juda xunuk va zerikarli boʻlgani uchun ogʻir botyapti. Hech kim gʻam qilmaydi, hech kim tashvishlanmaydi, hech kim oʻylamaydi! Shunchaki, yarim oʻlik odamlar toʻdasi.”

Elison: “Iltimos, bas qil, Jimmi... Bu juda oshib tushdi.”

(J. Osborn, "Look Back in Anger", 1956)

Jimmining nutqiy niyati — jamiyatdagi befarqlik va sustkashlikni keskin piching va tanqid orqali qoralash hamda tinglovchi (Elison)ga ruhiy bosim oʻtkazishdir. Bu individualistik madaniyatga xos boʻlgan shaxsiy hissiyotlarning ochiq ifodalanishining yorqin namunasidir. Oʻzbek dramaturgiyasidan misol:

Rohila: (kiradi) Orzu-havas koʻrish peshonamga bitmagan boʻlsa nima ham deyman! (Yigʻlamsirab) Mayli, onaning kuchi bolaga yetmaydigan zamon ekan...

Nasiba: (hayron). Voy, nima deyapsiz, oʻzingiz?!

(A. Qahhor, “Ogʻriq tishlar”)

Rohilaning nutqida asosiy nutqiy niyat — ichki iztirob va umidsizlikni ifodalashdir. U oʻz orzu-istaklaridan voz kechishga majbur ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, uning nutqi kengroq ijtimoiy kontekstga ishora qiladi: “onaning kuchi bolaga yetmaydigan zamon ekan” iborasi davr qiyinchiliklaridan shikoyat qilish va noliish ohangini tashiydi. Bu yerda emotiv (hissiy) niyat va ijtimoiy-tanqidiy niyat oʻzaro bogʻlanib ketgan. Nasibaning “Voy, nima deyapsiz, oʻzingiz?!” degan javobi esa hayrat va xavotirni ifodalaydi. Ushbu niyat suhbatdoshning holatini yengillashtirish va unga dalda berishga qaratilgan boʻlib, muloqot vaziyatiga moslashgan empatik (hamdardlik) reaksiya vazifasini bajaradi.

Asosiy ilmiy xulosala qilib shuni taʼkidlashimiz joizki, ingliz madaniyatida shaxsiy norozilik va ijtimoiy tanqid koʻpincha toʻgʻridan-toʻgʻri va keskin shaklda (ironiya orqali) ifodalanadi. Oʻzbek madaniyatida esa nutqiy niyatlar koʻproq hissiy

ohanglar, taqdirga tan berish va ijtimoiy holatga ishora qilish orqali, suhbatdoshdan hamdardlik kutgan holda namoyon bo'ladi.

Implikatura mexanizmi ham voqealantirishni kuchaytiradi. Qahhor matnida kinoya va yumor orqali aytilgan replika ko'pincha bevosita ayblashdan ko'ra kuchliroq voqea tug'diradi, chunki u tinglovchini "yashirin ma'no"ni topishga majbur qiladi va munosabatni keskinlashtiradi. Pinterda esa implikatura ko'pincha sukut, noaniq javob, yarimta gaplar bilan birga kelib, leksik birliklarning "aytilmagan" qismiga yuk tushiradi; natijada dialogda bo'shliq paydo bo'ladi va shu bo'shliq tomoshabin ongida voqea sifatida to'ldiriladi. Lingvokognitiv nuqtai nazardan bu holat "inferensial to'ldirish" operatsiyasi bilan izohlanadi: tinglovchi minimal leksik signal asosida maksimal ssenariy quradi, drama esa aynan shu qurilishni boshqaradi [2]. "Muloqotning lisoniy jihatlari tilning tuzilishi va undan foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Quyida ushbu tushunchalarning ilmiy tahlili keltirilgan: 1. Sintaksis (Gap qurilishi) So'zlarning gapdagi tartibi fikrning aniqligi va mantiqiy urg'usiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aniq nisbat (active voice) va majhul nisbat (passive voice) qo'llanilishi muloqot markazidagi ob'ektni o'zgartirishi mumkin. Bu esa so'zlovchining diqqatni kimga yoki nimaga qaratmoqchi ekanligini belgilaydi. 2. Semantika (Ma'no bilimi) Semantika so'z va iboralarning lug'aviy ma'nolarini tadqiq etadi. Xabarlarining qanday talqin qilinishi aynan semantikaga bog'liq, chunki tildagi ko'p ma'nolilik (polistemiya) yoki noaniqliklar o'zaro tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. 3. Pragmatika (Nutqiy vaziyat) Pragmatika tilning qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatadigan kontekstual (vaziyatga oid) omillarni o'rganadi. Masalan, muayyan bir ibora so'zlanayotgan muhit va sharoitga qarab butunlay boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. 4. Diskursiv markerlar (Bog'lovchi vositalar) "Biroq", "shuning uchun", "keling, ko'ramiz" kabi diskursiv markerlar suhbat oqimini yo'naltiradi. Ular mavzuning o'zgarishini yoki so'zlovchining bildirilayotgan fikrga nisbatan munosabatini (pozitsiyasini) ko'rsatib beruvchi muhim vositalar hisoblanadi" [7].

Tadqiqot natijasida dialogik voqealantirishning kognitiv modeli taklif qilindi: birinchidan, leksik trigger freymni faollashtiradi; ikkinchidan, trigger presuppozitsiya orqali umumiy bilim maydonini "majburiy" tarzda belgilaydi; uchinchidan, replika implikatura orqali konfliktni bevosita emas, bilvosita ko'paytiradi; to'rtinchidan, keyingi replika bu freymni tasdiqlasa voqea barqarorlashadi, inkor etsa voqea keskinlashadi. Qahhor materialida bu model ko'proq tezkor, ochiq reaksiyalar bilan ishlashini, Pinter materialida esa cho'zilgan, noaniq va muzokarali reaksiyalar orqali ishlashini ko'rsatdi. Shuningdek, har ikki asarda voqealantiruvchi leksika ko'pincha ijtimoiy rol nomlari, murojaat shakllari va baholash birliklari bilan birlashganda eng

yuqori dramatik kuchga ega bo'lishi aniqlandi; chunki aynan shu birliklar shaxsning kommunikativ maqomini belgilaydi va "kim kimga gapiryapti" degan savolni voqeaga aylantiradi [1].

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, drama dialogida voqea ko'pincha tashqi harakatdan oldin til ichida, leksik tanlov va kognitiv operatsiyalar orqali yuzaga keladi. A. Qahhor "Og'riq tishlar"da voqealantirishning asosiy manbai og'riq tajribasini nomlovchi va baholovchi leksika bo'lib, u dialogni zudlik va ta'sir o'tkazish rejimiga o'tkazadi; H. Pinter "The Caretaker"da esa joy, egalik va legitimlikni bildiruvchi leksika dialogni muzokara va shubha rejimiga ko'chirib, voqeani kechiktirish orqali kuchaytiradi. Qiyosiy lingvokognitiv tahlil voqealantiruvchi birliklarni "semantik mazmun" bilan cheklaymasdan, ularning freym chaqirish, presuppozitsiya yuklash va implikatura hosil qilishdagi kompleks rolni ko'rsatadi; shu tariqa dramatik dialogni talqin qilishda yangi izohiy imkoniyatlar ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lakoff G. *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press, 1987. 632 p.
2. Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. Oxford: Blackwell, 1995. 326 p.
3. Qahhor A. *Og'riq tishlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 64 b.
4. Pinter H. *The Caretaker*. London: Methuen Drama, 2000. 96 p.
5. Арутюнова Н. Д. *Язык и мир человека*. Москва: Языки русской культуры, 1999. 896 с.
6. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008. 208 b.
7. Khushmamatova, A. (2025). THE LINGUISTIC-COGNITIVE ASPECTS OF DIALOGICAL COMMUNICATION. *International scientific journal of Biruni*, 4(2), 216-219.
8. Xushmamatova A. "Ingliz va o'zbek tillaridagi dramatik asarlari nutqida nutqiy intensiyaning lingvokulturologik xususiyatlari", SCIENCEPROBLEMS.UZ IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI No S/9(5) –2025 ISSN 2181-1342